To'g'ri ovqatlanish –proteinlar mushak to'qimalarini qurish va tiklash uchun zarur. Tuxum, tovuq go'shti, baliq, mol go'shti, sut mahsulotlari, dukkaklilar va yong'oqlar. Uglevodlar –Mushaklar energiya olishi uchun foydalaniladigan asosiy

yoqilg'i. Masalan butun donli mahsulotlar, sabzavotlar, mevalar va dukkaklilar. Yog'lar-Sog'lomyog'lar mushaklar uchun energiyani taminlaydi vayallig'lanish jarayonini kamaytiradi. Zaytun moyi, avakado, yong'oq va baliq yog'ida ko'pdir VIitamin va minerallar; Magniy-Mushaklarning qisqarishi va bo'shashishi uchun kerak. Kaliy – Mushaklarning elektrolit balansini saqlaydi. Kalsiy - Mushaklar va suyaklar uchun zarur, sut mahsulotlarida nisbatan ko'p. D vitamini-Mushak kuchini saqlab qolish uchun muhim.

Yetarli miqdorda suv ichish. Mushaklarning optimal ishlashi uchun suvsizlanishdan saqlanish muhim; Kuniga kamida 2-3 litr suv ichish tavsiya etiladi. Jismoniy mashqlar paytida yo'qotilgan suyuqlikni qoplash uchun ko'proq suv ichish kerak'

Jismoniy faollik va mashqlar. Mushaklarni sog'lom va kuchli saqlash uchun muntazam jismoniy faollik zarur; Kuch mashqlari-Og'irlik ko'tarish, plank mushak massasini oshiradi. Kardio mashqlar-Yugurish, suzish, velosiped minish qon aylanishini yaxshilaydi va mushaklarning chidamliligini oshiradi. Cho'zilish mashqlari- Elastiklik va mushaklarning moslashuvchanligini saqlash uchun yoga mashqlarini bajarish kerak.

Yetarlicha dam olish va uyqu; Mushaklar mashq paytida emas. balki damolayotganda tiklanadi. Tungi 7-9 soat sifatli uyqu mushaklarning o'sishi va tiklanishi uchun muhim. Haddan tashqari mashq qilish mushaklarning ortiqcha zo'riqishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun yetarli dam olishi juda muhim.

Stress va ortiqcha yuklanishdan saqlanish; Stress mushaklarning taranglashishiga va qattiqlashishiga olib kelishi mumkin. Mediatsiya, nafas mashqlariva dam olish usullari mushaklarning sog'lom ishlashiga yordam beradi.

Yomon odatlardan voz kechish; Spirtli ichimliklar mushaklarning tiklanishini sekinlashtiradi. Chekish- qon aylanishiga zarar yetkazib, mushaklarga kislorod yetkazib berishini pasaytiradi. Gazlangan va shakarli ichimliklar – mushaklarning energiya ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ortopedik va ergonomik muhit yaratish. To'g'ri holatda o'tirish va yurish mushaklarga ortiqcha yuk tushishining oldini oladi. Ergonomik o'rindiqlar va ish sharoitini yaxshilash orqa va bo'yin mushaklarining zo'riqishini kamaytiradi.

## ***NEYRODEGENERATIV O'ZGARISHLARGA EGA BEMORLARDA KOGNITIV FUNKSIYALARGA JISMONIY FAOLLIKNING TA'SIRI***

*Axunova Tamina Adil qizi  
Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markaziy shifokori*

### **Annotatsiya**

Maqolada neyrodegenerativ bemorlarda jismoniy faollikning kognitiv funksiyalarga ijobiy ta'siri o'rganildi. Natijalar jismoniy mashqlar Brain-Derived

Neurotrophic Factor darajasini oshirib, miyadagi neyroplastiklikni rag'batlantirishini va kognitiv yaxshilanishlarga olib kelishini ko'rsatdi. Maqola jismoniy faollikni kognitiv buzilishlarni kamaytirishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** neyrodegeneratsiya, jismoniyfaollik, kognitiv, plastiklik, neyrotrofik, BDNF, fMRI, korteks, hipokampus, reabilitatsiya, intensivlik, motor, testlar

Bugungi kunda neyrodegenerativ kasalliklar, jumladan Altsgeymer va Parkinson kasalliklari, dunyo bo'yicha keng tarqalgan va kognitiv funksiyalarning sezilarli darajada buzilishiga olib keladigan jiddiy sog'liq muammolaridan biridir. Ushbu kasalliklarda mavjud farmakologik davolash usullari cheklangan bo'lib, shuning uchun kognitiv qobiliyatlarni saqlab qolish va yaxshilash uchun qo'shimcha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu nuqtai nazardan, jismoniy faollikning neyrodegenerativ o'zgarishlarga ega bemorlarda kognitiv funksiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Jismoniy faollik miyadagi neyroplastiklikni rag'batlantirib, neyrotrofik omillar darajasini oshirish orqali kognitiv pasayishni sekinlashtirishga yordam beradi. Ushbu mavzu dolzarbligi va yangiligi shundaki, jismoniy faollikning intensivligi, turi va davomiyligi kognitiv funksiyalarga ta'sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'paymoqda. Maqsad neyrodegenerativ o'zgarishlarga ega bemorlarda jismoniy faollikning kognitiv funksiyalarni qo'llab-quvvatlashdagi roli va mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Tadqiqotda 60 nafar neyrodegenerativ o'zgarishlarga ega bemor ishtirok etdi, ulardan 30 nafari Altsgeymer kasalligi, 30 nafari Parkinson kasalligi bilan og'rikan. Ishtirokchilar ikki guruhga bo'lindi: birinchi guruh haftada 3-5 marta, 40-60 daqiqa davomida o'rtacha intensivlikdagi aerobik va kuchaytiruvchi mashqlar dasturida qatnashdi; ikkinchi guruh esa standart tibbiy yordam oldi, jismoniy faollik dasturida qatnashmadi. Tadqiqot davomiyligi 12 hafta bo'ldi.

Kognitiv funksiyalar Mini-Mental State Examination (Mini-Aqliy Holat Testi — MMSE) va Montreal Cognitive Assessment (Montreal Kognitiv Baholash Testi — MoCA) yordamida baholandi. Jismoniy faollik darajasi o'z-o'zini baholash so'rovlari orqali aniqlanib, Brain-Derived Neurotrophic Factor (Miya Kelib Chiqadigan Neyrotrofik Omil — BDNF) darajasi qon namunalarida tahlil qilindi. Miya faoliyati funksional magnit-rezonans tomografiya (Functional Magnetic Resonance Imaging — fMRI) yordamida o'rganildi.

Jismoniy faollik guruhida MMSE ballari o'rtacha 21.7 dan 25.3 gacha, MoCA ballari 19.8 dan 23.7 gacha oshdi ( $p < 0.01$ ). Nazorat guruhida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. BDNF darajasi jismoniy faollik guruhida 13.2 nanogrammm/millilitr (ng/ml) dan 19.5 ng/ml gacha oshdi ( $p < 0.01$ ), nazorat guruhida esa o'zgarish bo'lmadi. fMRI natijalari prefrontal korteks va hipokampus sohalarida neyroaktivlikning oshishini ko'rsatdi.

Natijalar jismoniy faollikning neyrodegenerativ kasalliklardagi kognitiv buzilishlarni sekinlashtirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. BDNF darajasining

oshishi neyroplastiklikni rag‘batlantiradi, fMRI esa jismoniy faollik miyadagi muhim kognitiv mintaqalarning faoliyatini yaxshilashini ko‘rsatdi. Tadqiqot shuningdek, jismoniy faollikning intensivligi va muntazamligi kognitiv yaxshilanishlarga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy faollik neyrodegenerativ o‘zgarishlarga ega bemorlarda kognitiv funksiyalarni saqlash va yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu natijalar jismoniy faollikni neyrodegenerativ kasalliklarda kognitiv buzilishlarni kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirishda muhim qo‘shimcha davolash usuli sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar davomiyligini oshirish va ishtirokchilar sonini ko‘paytirish orqali jismoniy faollikning ta‘siri yanada aniqroq o‘rganilishi tavsifa etiladi.

## ***ASSESSMENT OF PERSONAL CHARACTERISTICS OF WOMEN WITH DEPRESSIVE DISORDERS***

*Ch.A.Kuchimova*  
*Samarkand State Medical University , Department of Psychiatry, medical psychology and narcology*

**Relevance of the topic.** According to WHO, depression is one of the most widespread diseases of our time and by 2030 depression will be one of the main causes of disability, taking the second place after cardiovascular pathology. About 100 million people on our planet show signs of depression every year, and women have twice the risk of developing and relapsing into a depressive disorder compared to men. The pathopsychological study of depressive disorders is of great practical and therapeutic and preventive importance.

**The purpose of the study:** to study the personal characteristics of women with depressive disorders in order to improve medical and psychological care for this group of patients.

**Materials and methods of the study:** 30 women with depressive disorders who were undergoing inpatient treatment in the psychosomatic department of the Samarkand Regional Psychiatric Hospital were examined. During the study, the Hamilton scale was used to assess the severity of depressive symptoms, and the Schmischek-Leonhard test was used to determine personality traits.

**The results of the study.** Affective disorders were most often classified as a severe depressive episode (F-32.3 according to ICD-10 classification) in 10 patients (33.2%), mixed anxiety and depressive disorder (F-41.2)-in 8 women (26.8%). A moderate depressive episode was less common (F-32.1)-in 20% of the examined women, prolonged depressive reaction due to an adjustment disorder (F-43.21)-in 3 women (10%) and dysthymia (F-34.1)-in 3 examined women (10%). The study of personality traits using the Schmischek-Leonhard test revealed among all the examined: demonstrative personality type in 3 patients (10%), stuck

personality type in 8 patients (26.7%), dysthymic type in 40% of cases (12 examined), anxious-fearful type in 5 patients (16.7%) In 6.6% of cases, an emotive personality type was identified. Depending on the type of personality, the patients had such traits as autoaggression, a tendency to guilt, pessimism, low self-esteem, and difficulties in social contacts.

**Conclusions:** according to the results of testing, it was revealed that severe depression was most often found in people with a dysthymic personality type. Moderate depressive disorders were observed in individuals with stuck and anxious-fearful personality types. Mild depressive disorders have been diagnosed in patients with a demonstrative personality type. A pathopsychological study aimed at studying the characteristics of a person's energy resources, the leading characteristics of the emotional sphere and the style of interpersonal relationships revealed significant differences between individual personality types and nosological forms, and also revealed the comparability of these results with clinical data. Depending on the results obtained, it becomes possible to conduct an effective course of treatment and choose a method of psychotherapeutic influence in the relief of depressive disorders.

## ***ONCE-WEEKLY MAZDUTIDE IN ADULTS WITH OBESITY OR OVERWEIGHT***

*Students of Fergana Medical Institute of Public Health  
Davlatov Shohjaxonbek Qurbonbek o'g'li, Aditya Raj Sharma, Ayaz Arshi,  
Pratham Sharma, Pulkit Sriwastava*

**Abstract:** This thesis is based on a phase 3, double-blind, placebo-controlled trial that investigated the efficacy and safety of mazdutide, a once-weekly glucagon-like peptide-1 and glucagon receptor dual agonist, in adults with obesity or overweight. The study demonstrated significant and clinically relevant weight reduction over a 32- and 48-week period, along with improvements in cardiometabolic risk factors. Gastrointestinal adverse events were most common but generally mild or moderate in severity.

**Introduction** Obesity is a major global health issue and a significant risk factor for various chronic diseases. In China, nearly half of the population is affected by overweight or obesity. Recent pharmacologic interventions using incretin-based therapies have shown promise in managing obesity. Mazdutide, a dual agonist of GLP-1 and glucagon receptors, has emerged as a potential therapy offering weight loss and metabolic benefits.

**Methods** The GLORY-1 trial included 610 adults randomized to receive either 4 mg or 6 mg of mazdutide or placebo weekly for 48 weeks. Participants had a BMI  $\geq 28$  or BMI 24–28 with comorbidities. The primary endpoints were percent

weight change and  $\geq 5\%$  weight reduction at week 32. Secondary endpoints included waist circumference, blood pressure, lipid profile, and liver enzymes.

**Results** Both mazdutide doses significantly reduced body weight compared to placebo. At week 32, the mean weight loss was  $-10.09\%$  and  $-12.55\%$  for 4 mg and 6 mg doses respectively, with over 70% achieving  $\geq 5\%$  weight loss. At week 48, the 6 mg dose led to a 14.01% weight loss. Improvements were observed in waist circumference, triglycerides, cholesterol, uric acid, and ALT. The most frequent adverse events were gastrointestinal in nature.

**Discussion** Mazdutide proved effective for weight loss and cardiometabolic improvements in adults. The dual agonism approach may enhance lipid oxidation and uric acid clearance. The safety profile was acceptable, with most adverse events occurring during dose escalation. This trial supports mazdutide as a new treatment option for weight management in populations.

**Conclusion** Mazdutide offers a promising pharmacological approach for obesity treatment in adults, demonstrating efficacy in weight reduction and metabolic health improvements. Future trials should assess its long-term impact, especially in populations with diabetes

### ***SUITSID HOLATLAR PROFILAKTIKASI***

*G'.S.Akramov<sup>1</sup> M.M.Zokirov<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedراسى assistenti.*

*<sup>2</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pediatriya fakulteti dekani, PhD*

**Mavzuning dolzarbligi.** Suitsid holati dolzarb ijtimoiy-tibbiy muammolardan biridir. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 720 000 dan ortiq odam oz joniga qasd qilish natijasida vafot etadi. O'z joniga qasd qilish 15-29 yoshdagi o'lim sabablari orasida uchinchi o'rinda turadi. Global o'z joniga qasd qilishning 73 foizi past va o'rta daromadli mamlakatlarda sodir bo'ladi. O'z joniga qasd qilishning sabablari ko'p qirrali bo'lib, ular hayot davomida mavjud bo'lgan ijtimoiy, madaniy, biologik, psixologik va ekologik omillar ta'sirida bo'lmoqda. Har bir o'z joniga qasd qilish oilalar, jamoalar va butun mamlakatlarga ta'sir qiladigan fojia bo'lib, orqada qolgan odamlarga uzoq davom etadigan ta'sir ko'rsatadi. 2021-yilda o'z joniga qasad qilish dunyo bo'ylab barcha o'limlarning 1,1%ini tashkil qiladi, ya'ni har 100 o'limdan 1nafari o'z joniga qasd qilish natijasida sodir bo'ladi. JSST o'z joniga qasd qilishning 800 sababini va hayotdan ko'z yumishning 80 usulini ko'rsatib aniqlab berdi.

**Tadqiqot maqsadi:** Suitsid holatlar profilaktikasini psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganish. Suitsid holatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini o'rganish va ruhiy holatlarda, muomalada, rivojlanishda, oilada, ishada va o'qishda

paydo bo'ladigan muammolarni o'z vaqtida profilaktikasini olib borish va samaradorli hal qilish maqsadida psixologik-pedagogik statusini o'rganish.

**Materiallar va tadqiqot usullari:** Tadqiqot ishini bajarish uchun zarur bo'lgan moddiy texnika bazasi bo'lib RIRSIATMPXB viloyat filiallari va RSHTYIM hududiy filiallari "Toksikologiya", "Xirurgiya", bo'limidagi qasd qilish holati bilan davolanayotgan bemorlar o'rganiladi. Bemorlarda anamnestik va klinikokatamnestik tekshirish olib boriladi.

**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqot natijasida so'nggi yillarda suitsid holatlarini statistik holati, klinik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik omillari o'rganiladi. Jinsalar bo'yicha erkaklar-26ta (52%), ayollar-24ta (48%); Suitsid sababini tahlili bo'yicha: ota-onasi bilan kelishmovchiliklar-20ta (40%), o'zining ahamiyatini isbotlash-8 ta (16%), uning hissiyotlarini tushunmasliklari-11ta (22%), or-nomusining kamsitilishi-7ta (14%), moddiy qiyinchiliklar-4ta (8%) aniqlanildi.

**Xulosa:** Suitsid sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay suitsidlar soni ortib bormoqda. Shunday ekan bu sohani yanada chuqur tadqiq qilish lozim. Yangi samarali profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish, xavf omillari va guruhlarini erta aniqlash hamda nazoratga olish suitsid holatlarini kamayishiga olib keladi.

### ***INSULTDAN KEYINGI DEPRESSIYANING KLINIK-NEVROLOGIK VA PARAKLINIK XUSUSIYATLARI, ERTA ANIQLASH VA OLDINI OLISH STRATEGIYALARI***

<sup>1</sup>G'ulomqodirov Muzaffar Maxmit o'g'li,  
<sup>2</sup>Muradimova Alfiya Rashidovna

<sup>1</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedراس  
assistenti.

<sup>2</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedراس  
mudiri, PhD, dotsent

#### **Ishning dolzarbligi.**

Insultdan keyingi bemorlardagi ruhiy buzilishlar, ularning klinik-neyrovizualizatsion xususiyatlari, erta aniqlash strategiyalarini va reabilitatsiya bilan bog'liq tadqiqotlar nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Insultdan keyingi bunday ruhiy buzilishlar insonlarning hayot sifatini cheklabgina qolmay, psixologik va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

#### **Tadqiqotning dolzarbligi.**

Insult dunyoda nogironlik va o'lim sabablarining yetakchi o'rinlaridan birini egallagan bo'lib, bemorlarning hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Harakat va

aqliy buzilishlardan tashqari, insultdan keyin bemorlarning katta qismida rivojlanadigan ruhiy buzilishlar muhim, biroq ko'pincha yetarlicha e'tibor berilmaydigan muammo hisoblanadi. Ular orasida reabilitatsiyani qiyinlashtiradigan, tuzalishga bo'lgan intilish va qobiliyatni pasaytiradigan, shuningdek, takroriy insult va o'lim xavfini oshiradigan tushkunlik, xavotirli holatlar va loqaydlik eng katta klinik ahamiyatga ega.

Shunday qilib, insultdan keyingi ruhiy buzilishlarni tashxislash uchun klinik va neyrovizualizatsion mezonlarni ishlab chiqish, shuningdek, samarali reabilitatsiya strategiyalarini yaratish dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir. Ushbu masalalarni hal qilish insult bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash, nogironlik darajasini kamaytirish va reabilitatsiya davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Tadqiqotning maqsadi.**

insultdan keyingi ruhiy buzilishlar rivojlanishining klinik-laborator xususiyatlarini o'rganish va ularni erta aniqlash strategiyalarini va reabilitatsiya qilish ishlab chiqish.

#### **Tadqiqotning vazifalari.**

1. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlar namoyon bo'lishining klinik va psixonevrologik xususiyatlarini shakliga qarab o'rganish;
2. Insultdan keyingi ruhiy holati buzilgan bemorlarda qon zardobidagi BDNF va IL-6 ning laborator ko'rsatkichlarini o'rganish;
3. Insultdan keyingi ruhiy holati buzilgan bemorlarda bosh miyaning neyrovizualizatsion tekshiruvini (MRT) o'tkazish;
4. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlarni bazis terapiya va antidepressantlar fonida reabilitatsiya qilish va davolash usullarini o'rganish;
5. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlarni erta aniqlashning klinik-diagnostik mezonlarini aniqlash va insultdan keyingi ruhiy buzilishlar rivojlanish xavfini kamaytirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

#### **Tadqiqot materiallari.**

Ushbu tadqiqotga turli shakldagi insultdan keyingi ruhiy buzilishlari bo'lgan bemorlar (n=122) kiritiladi, ular tadqiqot guruhlariga - asosiy (n=92) va nazorat (n=30) - nisbatan psixo-nevrologik sog'lom kontingentga guruhlanadi. Guruhlar jinsi va yoshiga ko'ra bir xil.

Asosiy guruh 2 guruhga bo'linadi: 1-asosiy guruh - xavotirli-depressiv, 2-asosiy guruh - insultdan keyingi apatik-depressiv buzilishlari bo'lgan bemorlar. Keyinchalik, ruhiy buzilishlarni differensial davolashni aniqlash va ishlab chiqish uchun biz ikkala asosiy guruhni qabul qilinayotgan antidepressantga qarab 2 kichik guruhga ajratamiz: 1a va 2a kichik guruhlar essitalopram preparatini qabul qiladi, 1b va 2b kichik guruhlar esa sertralin preparatini qabul qiladi.

#### **Tadqiqot usullari.**

Klinik-anamnestik, psixonevrologik (shkalalar va testlar), laborator (BDNF (neyronlarning tiklanish markeri) va IL-6 (tizimli yallig'lanish markeri) qon zardobi, neyrovizualizatsion (MRT) va statistik tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

### **Ilmiy yangilik.**

1. Insultning lokalizatsiyasi va og‘irligiga qarab turli xil ruhiy buzilishlarning (depressiya, xavotir, apatiya, kognitiv buzilishlar) klinik va psixonevrologik xususiyatlari birinchi marta batafsil tavsiflangan.

2. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi laboratoriya markerlari aniqlanadi va tavsiflanadi. Bu ilgari yetarlicha tadqiq qilinmagan, laboratoriya ma’lumotlari asosida ruhiy buzilishlar rivojlanish xavfini bashorat qilishning yangi usullarini taklif qilish imkonini beradi.

3. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlarda insultning lokalizatsiyasi va og‘irligiga qarab bosh miyaning neyrovizualizatsion manzarasi tavsiflanadi.

4. Insultdan keyingi ruhiy buzilishlarni medikamentoz rehabilitatsiya qilish samaradorligini bemorlarning psixoemotsional va kognitiv holatiga ta’siri nuqtayi nazaridan baholash.

5. Insultdan keyingi bemorlarda ruhiy buzilishlarni erta aniqlash uchun yangi klinik-diagnostik mezonlar ishlab chiqiladi va insultdan keyingi ruhiy buzilishlar rivojlanish xavfini kamaytirish uchun yangi profilaktik strategiyalar ishlab chiqiladi, bu nafaqat bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga, balki samarali nazorat va erta aralashuv orqali tibbiyot muassasalariga yuklamani kamaytirishga imkon beradi.

### **Xulosa:**

Shunday qilib, dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi insult o‘tkazgan bemorlarda ruhiy buzilishlarni erta tashxislash va rehabilitatsiya chora-tadbirlarini optimallashtirish, davolash samaradorligini oshirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beruvchi klinik-laborator xususiyatlarini kompleks tadqiq qilishdan iborat.

## ***NEVROLOGIK VA RUHIY KASALLIKLARNI DAVOLASHNING ISTIQBOLLI USULLARI***

*Ibragimova Ziyodaxon Jaloliddinovna  
FJSTI Gistalogiya va Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchi  
Rasulova Farzona G‘ayratjon qizi  
FJSTI Pediatriya yo‘nalishi 53.24 guruh talabasi  
Farg‘ona, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashning istiqbolli usullari zamonaviy tibbiyotda jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali o‘smirlarda nevrologik va ruhiy kasalliklarni aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish hamda davolashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali shifokorlarga qulayliklar yaratish va buning istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** MRT, autizm, EEG, epilepsiya, parkinson sindromi, kompyuter tomografiyasi.

**Kirish.** Hozirgi kunda oʻsmirlar va bolalarda nevrologik kasalliklarni aniqlash va davolash uchun koʻplab istiqbolli usullardan foydalanamiz. Nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashning istiqbolli usullari sohasida soʻngi yillarda katta yutuqlar kuzatilmoqda. Neyrobiologiya, psixiatriya va nevrologiya sohalaridagi yangiliklar, ilgʻor tadqiqotlar va texnologiyalar kasalliklarni aniqlash va davolashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu usullardan foydalanish aholi va shifokorlar uchun juda qoʻl kelmoqda. Bungi kunda tibbiyot olamida nevrologik kasalliklarda aniqroq tashxis qoʻyish va muayyan davolash qanchalik samarali ekanligini tekshirish uchun kuchli va aniq vositalardan foydalaniladi. Bugunga kelib oʻsmirlar va bolalar orasida nevrologik kasalliklar juda koʻp uchramoqda. Bu kasalliklarni davolashda va reabilitatsiya jarayonlarini yaxshilashda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Deyarli chekka hududlardagi shifoxonalarni ham eng soʻnggi rusumdagi boʻlmasada, kompyuter texnologiyalar bilan jihozlashga harakat qilinmoqda. Chunki hozirgi oʻsmirlar orasida juda koʻp nerv kasalliklari uchramoqda.

#### **Asosiy qism:**

Hozirgi kunda oʻsmirlar nevrologik kasalliklarni davolashda foydalaniladigan texnologiyalarga quyidagicha misollar keltirish mumkin:

MRT (magnit - rezonas tomografiya) apparati juda muhim hisoblanadi. U miya tuzilishini juda batafsil koʻrsatib beradi va bu shifokorlarga turli xildagi kasalliklarga aniq tashxis qoʻyish va davolashda yordam beradi. Shifokorlar MRT orqali oʻsmirlardagi miya shishi, qon tomir kasalliklari, miya yalligʻlanishlari miya qobigʻidagi turli nevrologik kasalliklarni aniqlaydilar. Bunday tashqari MRT orqali kasalliklarni ogʻirlik darajasini aniqlash va davolash samaradorligini ham kuzatish mumkin boʻladi. Davolash usulini tanlashda ham MRT muhim rol oʻynaydi. Masalan, agar miya shishi aniqlansa, MRT uning joylashuvini va hajmini aniqlashga yordam beradi. Bu esa jarrohlik amaliyoti yoki radiatsiya terapiyasi kabi davolash usullarini tanlashga imkon yaratadi. Shuni taʼkidlash kerakki, MRT xavfsiz va ogʻriqsiz tekshirish usuli hisoblanadi. Biroq, baʼzi hollarda, masalan, metall implantlar mavjud boʻlsa, MRTni amalga oshirish mumkin emas. Hozirgi kunda oʻsmirlar orasida oʻsma kasalliklari koʻp uchramoqda. MRT esa bu kasalliklarga aniq tashxis qoʻyishda va davolash rejasini tuzishda yordam beradi.

Oʻsmirlardagi nevrologik kasalliklarni aniqlashda EEG(elektroensefalografiya) dan foydalaniladi. EEG asosan, miya faoliyatini oʻlchash uchun ishlatiladi. Bu miya toʻlqinlarini tahlil qilish orqali epilepsiya, uyqu buzilishi, migren va boshqa nevrologik kasalliklarni aniqlashga yordam beradi. U miyaning turli qismlaridan kelib chiqadigan elektr signallarni yozib olish orqali amalga oshiradi. Bu signallar miyaning turli holatlarini, masalan, uyqu, uygʻonish, konsentratsiyasi va boshqalarni aks ettiradi. Bundan tashqari EEG epilepsiya xurujlarini aniqlashda juda samarali vosita hisoblanadi. U miyaning gʻayritabiiy elektr faoliyatini aniqlashga yordam beradi, bu epilepsiya xurujlarining sababi boʻlishi mumkin.

Bundan tashqari EEG boshqa nevrologik kasalliklarni, masalan, miya shishi, ensefalit, meningit va boshqalarni aniqlashga yordam beradi. Bu kasallik miyaning elektr faoliyatidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin va buni EEG orqali aniqlash mumkin. EEG tekshirish jarayonida bemorga hech qanday og'riq yoki zarar yetkazmaydi. Bundan tashqari EEG tekshiruvini boshqa tasvirlash usullariga qaraganda arzonroq tushadi. EEG tekshiruvini tez va oson amalga oshiriladi. Hozirgi kunda bemorlarda koma holatidagi miyaning ish faoliyatini baholashda ham ishlatish mumkin. EEG tekshirish jarayonining tez va oson amalga oshirilishi bu holatda qo'l kelmoqda. O'smirlarda bosh og'rig'i keng tarqalgan muammo. Ba'zi bosh turlari miyaning g'ayritabiiy elektr faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. EEG tekshirish usuli esa bunda juda qo'l keladi. Xullas o'smirlarda uchraydigan nevrologik buzilishlarda EEGning ahamiyati katta.

TMS (transkraniyal magnit stimulyatsiya) bu miya faoliyatini o'zgartirish uchun ishlatiladi. Qisqacha qilib aytganda u miyaning ma'lum qismlarini rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Bu degani, depressiya, xavotir, obsesif-komelsiv buzilish va boshqa nevrologik kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan. TMS o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni aniqlashda hali ham yangi texnologiya hisoblanadi va keng qo'llanilmaydi. Ammo depressiya jarayonida dori-darmonlarga javob bermaydigan depressiyon holatlarini davolash samarali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari migren, oksidativ stress kabi kasalliklarni keltirib chiqaradigan salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. TMS noinvaziv usul ya'ni xavfsiz va og'riqsiz usul hisoblanadi. Uning boshqa dori - darmonlarga qaraganda yon ta'siri kamroq. TMSning ta'siri tezroq ko'rinishi mumkin, ba'zida bemorlar bir necha hafta ichida yaxshilanishi kuzatiladi. Bundan tashqari TMS dori - darmonlarga alternativ bo'lishi mumkin, ayniqsa, dori - darmonlarga javob bermaydigan bemorlar uchun.

TMS miya faoliyatini o'zgartirishga yordam beradi, bu esa o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni davolashda muhim rol o'ynaydi. Ammo, o'smirlarda TMSni qo'llashda bir nechta kamchiliklar ham mavjud. Misol uchun, TMSning uzoq muddatli ta'sirihali to'liq o'rganilmagan. TMS barcha bemorlarga birdek mos kelmaydi, ayniqsa, o'smirlarga. Bundan tashqari TMS boshqa dori - darmonlarga qaraganda nisbatan qimmatroq tushishi mumkin. O'smirlarda TMSni qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish juda muhim hisoblanadi. TMS hozirgi kunda juda foydali texnologiyalar qatoriga kiradi deb o'ylayman. Chunki ayni paytda ya'ni hozirgi texnika asrida o'smirlar virtual hayot bilan yashamoqda. Bu esa o'smirlardagi depressiya xavotir kabi holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi vaqtda tibbiyotning nevrologiya sohasi qo'llanilayotgan zamonaviy kompyuter texnologiyalarga kompyuterlashgan tomografiya (KT) ni olishimiz mumkin. KT juda keng qo'llaniladigan texnologiya. U miya va boshqa organlarning tasvirlarini olish imkonini beradi va bu shifokorlarga o'smirlardagi nevrologik kasalliklar haqida aniq ma'lumot olishga yordam beradi. KT texnologiyasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda va bu sohada juda ko'p yangiliklar paydo bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda KT sohasida quyidagicha yangiliklar sodir bo'lmoqda:

Yangi avlod skanerlari :

Yuqori aniqlikdagi tasvirlar , yangi KT skanerlari yuqori aniqlikdagi tasvirlarni olish imkonini beradi , bu esa shifokorlarga kichik o'zgarishlarni ham aniqlashga yordam beradi . Kamroq radiatsiya, yangi skanerlar kamroq radiatsiya ishlatadi , bu esa bemorlar uchun xavfni kamaytiradi. Tezroq skanerlash , yangi skanerlar tezroq skanerlash imkonini beradi va bu bemorlar uchun qulaylik yaratadi. Onkologiya , KT saraton kasalligini aniqlash va davolash samaradorligini kuzatishda keng qo'llaniladi. Yurak - qon tomir kasalliklari , KT yurak xastalıkları qon tomirlarining torayishi va boshqa yurak - qon tomir kasalliklarini aniqlashda yordam beradi. Neyroxirurgiya , KT miya shishi , qon tomirlarining shikastlanishi va boshqa nevrologik kasalliklarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ortopediya, suyaklarning singan joylari, artroz va boshqa suyak - mushak tizimi kasalliklarini aniqlashda foydalaniladi. Xulosa qilib aytganda KT o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni davolashda muhim rol o'ynaydi . Ular tez va aniq tashxis qo'yish , davolash rejasini tuzish, davolash samaradorligini kuzatish va jarrohlik amaliyotini rejalashtirishda yordam beradi . Biroq KT radiatsiya ta'siriga ega ekanligini esda tutish kerak .

MEG ( Magnetoensefalografiya ) texnologiyasi ham juda keng qo'llaniladigan texnologiyalar sirasiga kiradi . MEG bu miyaning elektr faoliyatini o'lchash uchun ishlatiladigan texnologiyalar sirasiga kiradi . Lekin , EEG ga qaraganda aniqroq . U miya tomonidan ishlab chiqariladigan juda zaif magnit maydonlarni aniqlaydi . Bu maydonlar miya hujayralarining elektr faoliyati natijasida hosil bo'ladi . Bu texnologiya orqali juda ko'p kasalliklar aniqlangan . Masalan , autizm kasalligi . Autizm , bu kasallik o'smirlardagi murakkab va ko'p qirrali holat bo'lib , ijtimoiy aloqa , muloqot va qiziqishlarni cheklash bilan tavsiflanadi .

MEG haqida gap ketganda , uning autizmni aniqlashdagi ahamiyati bilan bir qatorda , o'smirlarning miya faoliyatini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash kerak . MEG orqali miya rivojlanishini kuzatish mumkin . Bu , ayniqsa , autizimli o'smirlarning miya rivojlanishi normal o'smirlar bilan solishtirishda juda muhimdir . Yana o'rganish va xotira jarayonlarini aniqlash mumkin. Bu, o'smirlarning ma'lumotni qanday qabul qilishi , qayta ishlashi va eslab qolishi haqida ma'lumot beradi. MEG ijtimoiy va hissiy jarayonlarni o'rganishga ham yordam beradi . Yuqorida aytib o'tganimizdek , autizmga chalingan o'smirlarda ijtimoiy aloqa va hissiy jarayonlarida buzilishlar bo'ladi . MEG esa bu buzilishlarni aniqlash imkoniyatini beradi , o'smirlarning boshqalar bilan qanday aloqa o'rnatishi , his-tuyg'ularni qanday tushunishi va qanday javob berishi haqida ma'lumot beradi. Umuman olganda MEG o'smirlarning miya faoliyatini o'rganish uchun juda qimmatli vositadir. U autizmni aniqlashdan tashqari , o'smirlarning miya rivojlanishini o'rganish va xotira jarayonlarini , ijtimoiy va hissiy jarayonlarini o'rganishga imkon beradi. Bu esa, o'smirlarning miya faoliyati va xulq-atvori haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi.

MEG ning afzalliklari:

Yuqori vaqt aniqligi: MEG miya faoliyatini millisekundlarda o'lchaydi, bu esa miya faoliyatidagi tez o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi. Noinnvaziv: MEG miyaning ichiga hech qanday narsa kirishni talab qilmaydi. Bu esa uni xavfsiz va og'riqsiz usul qiladi. Yuqori fazoviy aniqlik: MEG yordamida miyaning turli qismlaridan kelib chiqqan signallarni ajratish mumkin, bu esa miyaning faoliyatini batafsil o'rganishga imkon beradi. MEG ning kamchiliklari ,Yuqori narx : MEG tizimlari juda qimmatga tushadi , bu esa uni keng tarqalgan usul qilmaydi.Cheklangan fazoviy aniqlik : MEG yordamida miyaning chuqur qismlaridagi faoliyatini o'lchash qiyin. Shovqinlarga sezgirlik : MEG tizimlari tashqi shovqinlarga juda sezgir , bu esa o'lchovlarning aniqligini pasaytirishi mumkin. MEG miya rivojlanishini kuzatish va boshqa ko'plab tadqiqot sohalarida foydali hisoblanadi . Xulosa qilib aytadigan bo'lsak MEG ham hozirgi kundagi zamonaviy kompyuter texnologiyalarning foydalilari qaroriga kiradi . Va o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni davolashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yana bir hozirgi kundagi zamonaviy kompyuter texnologiyalariga DBS ( chuqur miya stimulyatsiya ) ham kiradi . Bu texnologiyada miya faoliyatini o'zgartirish uchun elektrodni miyaning ma'lum joylariga joylashtiradi . Bu texnologiya o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi . DBS metodining o'smirlardagi nevrologik kasalliklarni aniqlashdagi ahamiyati quyidagilardan iborat.Harakatlarni nazorat qilishni yaxshilash : DBS , odatda , Parkinson kasallikligi yoki boshqa miya faoliyatini buzadigan kasalliklarda harakatlarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi . O'smirlarda bu usul , kasalliklarning dastlabki bosqichlarida samarali bo'lishi mumkin.Terapevtik ta'sir : DBS miyaga elektr impulslarini yuborib , neyronal faoliyatni normal holatga keltirish mumkin . Bu usul o'smirlardagi kasalliklarni davolashda , ayniqsa , dorilar bilan davolash samarali bo'lmagan hollarda foydali bo'ladi. Davolanishda yangi imkoniyatlar : o'smirlarda turli nevrologik kasalliklar uchun DBS ning samarali qo'llanishi ularning sifatli hayotini yaxshilashga yordam beradi , xususan , agar boshqa davolash usullari yetarli bo'lmasa. Minimal invaziv usul : DBS jarrohlik operatsiyasi minimal invaziv bo'lib bemor tezroq tiklanishi mumkin , bu o'smirlar uchun ayniqsa qulay .

Shu bilan birga, DBS ning o'smirlarda qo'llanishi murakkab va ehtiyotkorlik talab qiladi. Chunki o'smirlar hali rivojlanlanayotgan organizmga ega va miyadagi o'zgarishlar kutilgandan farq qilishi mumkin. Shuningdek, operatsiya va davolanish jarayonida psixologik va jismoniy ta'sirlarni inobatga olish zarur. Nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashning isriqbolli usullari yanada keng imkoniyatlar yaratmoqda. O'smirlarda nevrologik kasalliklarning erta bosqichida aniqlanishi muhim, chunki bu davolashning samaradorligini oshiradi.

### **Dolrزابligi**

Dunyo bo'ylab nevrologik va ruhiy kasalliklar millionlab insonlarga ta'sir qiladi. Altsgeymer kasalligi: 2050 yilga borib 150 milliondan ortiq kishiga ta'sir qilishi prognoz qilinmoqda.

Depressiya: Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga (JSST) ko'ra, dunyoda har 10 kishidan biri depressiyadan aziyat chekadi.

Parkinson kasalligi, shizofreniya, autizm va insult kabi kasalliklar ham ko'payib bormoqda.

An'anaviy davolash usullarining cheklovlari

Hozirgi dori vositalari faqat simptomlarni yengillashtiradi, ammo kasallik sabablarini bartaraf eta olmaydi

Ko'pchilik antidepressantlar va nevrologik dorilar uzoq muddatli nojo'ya ta'sirlarga ega

Parkinson va Altsgeymer kabi neyrodejenerativ kasalliklar hali to'liq davolab bo'lmaydi. Yangi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar imkoniyatlari

Gendir terapiya orqali neyronlarni tiklash imkoniyatlari oshmoqda. Ko'chirma hujayralar yordamida miya va asab tizimidagi shikastlanishlarni tiklash istiqbollari mavjud. Psixodelik dorilar (psilotsibin, ketamin, MDMA) depressiya va PTSD uchun yangi davolash usuli sifatida tasdiqlanmoqda. Sun'iy intellekt va neyrofeedback yordamida individual yondashuv asosida terapiya usullari rivojlanmoqda. Nevrologik va ruhiy kasalliklar dunyo bo'ylab ish qobiliyatining pasayishi va nogironlik sabablarining eng asosiy omillari hisoblanadi. Bu kasalliklar davlat byudjeti va sog'liqni saqlash tizimiga katta iqtisodiy yuk tushiradi. Ruhiy salomatlikning yomonlashishi jinoyatchilik, giyohvandlik va ijtimoiy muammolarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Kelajakda sog'liqni saqlash sohasidagi muhim o'zgarishlar

Personalizatsiyalangan tibbiyot: Genetik ma'lumotlarga asoslangan individual terapiya usullari ishlab chiqilmoqda. Innovatsion neyrotexnologiyalar: Miyaga implantlar, neyromodulyatsiya usullari va neyroprotektor dorilar rivojlanmoqda. Biomarkerlar orqali erta tashxis: Kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish imkoniyatlari kengaymoqda.

### **Materiallar va usullar**

#### **Materiallar**

Nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashda turli biologik, farmakologik va texnologik materiallar qo'llaniladi. Quyida asosiy materiallar keltirilgan

Biologik materiallar

Ko'chirma (stem) hujayralar: Neyrodejenerativ kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Gen terapiya vektorlari: DNK yoki RNK asosida ishlovchi virusli vektorlar, masalan, CRISPR texnologiyasi orqali ishlatiladi.

Neyrotransmitter modulyatorlari: Dopamin, serotonin, GABA kabi moddalar asab tizimini tartibga solish uchun ishlatiladi.

Farmakologik materiallar

Psixodelik dorilar: MDMA, Psilotsibin va Ketamin kabi moddalarning depressiya va PTSD uchun klinik tadqiqotlari davom etmoqda.

Yangi avlod neyroprotektor dorilar: Altsgeymer va Parkinson kasalliklarini davolash uchun ishlatilmoqda.

Mikrobiota asosida ishlangan preparatlar: Ichak-miya o'qi orqali ruhiy kasalliklarni tartibga solish imkonini beradi.

Texnologik materiallar

Neyrofeedback tizimlari: EEG (Elektroensefalografiya) orqali miyadagi elektr faollikni o'lchash va qayta bog'lash orqali bemorlar terapiya qilinadi.

TMS (Transkraniyal magnit stimulyatsiya): Ruhiy buzilishlarni davolash uchun ishlatiladigan magnit maydonlardan foydalanish usuli.

Sun'iy intellekt tizimlari: Bemorlarning ruhiy holatini tahlil qilish va tashxis qo'yishda yordam beradi.

### **. Usullar**

Gendir terapiya

Usul:

Kasallik bilan bog'liq bo'lgan genlar aniqlanadi.

Virusli vektorlar yordamida sog'lom gen bemorning organizmiga kiritiladi.

Ushbu gen kasallikni to'g'rilash yoki neyronlarni himoya qilish uchun faoliyat boshlaydi.

Qo'llanilishi:

Parkinson va Altsgeymer kasalliklari

Mushak distrofiyasi

Epilepsiya

Ko'chirma hujayralar terapiyasi

Usul:

Bemorning yoki donorning ildiz hujayralari olinadi.

Ular neyronlarga aylantiriladi va miyaga yoki orqa miyaga kiritiladi.

Neyrodegenerativ kasalliklarni tiklash uchun qo'llaniladi.

Qo'llanilishi:

Insultdan keyingi tiklanish

Multiple skleroz

Orqa miya jarohatlari

Neyromodulyatsiya usullari

TMS yoki DBS (Deep Brain Stimulation) yordamida miyadagi muayyan hududlar stimulyatsiya qilinadi. Ushbu usul dopamin va serotonin ajralishini normallashtirishga yordam beradi.

Qo'llanilishi:

Depressiya va bipolyar buzilishi

Parkinson kasalligi

Obsessiv-kompulsiv buzilish (OCD)

Psixodelik terapiya

### **Natija va Muhokamalar**

Gendir terapiya: Neyrodegenerativ kasalliklar, masalan, Altsgeymer va Parkinson kasalligini davolashda gen terapiyasi istiqbolli natijalar bermoqda. Bemorlarning harakatlari yaxshilanib, kognitiv buzilishlar sekinlashgan.

.Neyrofeedback terapiya: Depressiya, tashvish buzilishlari va diqqat yetishmovchiligi sindromi (ADHD) kabi ruhiy kasalliklar uchun neyrofeedback usuli samarali bo‘lib, bemorlarning simptomlarini kamaytirishga yordam bergan.

Katta til tarmog‘iga asoslangan AI tahlillari: Sun‘iy intellekt orqali bemorlarning ruhiy holatini tahlil qilish va erta tashxis qo‘yish imkoniyati kengaymoqda. Ushbu usul shizofreniya va depressiyani oldindan aniqlashda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Psixodelik dorilar (Psilotsibin, MDMA terapiyasi): Depressiya va travmadan keyingi stress buzilishlarini (PTSD) davolashda yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Klinik sinovlarda ushbu moddalarning ijobiy natijalari kuzatilgan.

Ko‘chirma hujayralar va regenerativ tibbiyot: Neyrodejenerativ kasalliklarda (masalan, insultdan keyingi tiklanish) ildiz hujayralari yordamida yangi neyronlarning o‘shishiga erishish istiqbollari paydo bo‘ldi.

**Muhokama:**

Gen terapiya va regenerativ tibbiyot usullari hali keng miqyosda qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, dastlabki klinik tadqiqotlar ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, uzoq muddatli xavfsizligi va samaradorligi bo‘yicha yanada chuqur tadqiqotlar talab qilinadi. Neyrofeedback va sun‘iy intellekt yordamida tashxis qo‘yish usullari an‘anaviy usullarga qaraganda ancha tezkor va shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif qilmoqda. Lekin bu usullar hali ham yuqori texnologik resurslarni talab qiladi. Psixodelik dorilar bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar umidbaxsh bo‘lsa-da, ularning qonuniy maqomi va uzoq muddatli ta‘siri bo‘yicha global darajada tortishuvlar davom etmoqda. Neyrodejenerativ kasalliklarni butunlay davolash hali to‘liq amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, yangi terapiya usullari bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam bermoqda. Nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolash bo‘yicha yangi yondashuvlar jadal rivojlanmoqda. Kelajakda gen terapiyasi, sun‘iy intellekt tahlillari, psixodelik dorilar va regenerativ tibbiyot orqali yanada samarali davolash usullari paydo bo‘lishi kutilmoqda. Lekin ushbu usullarni keng miqyosda qo‘llash uchun ko‘proq ilmiy tadqiqotlar talab qilinadi.

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashning istiqbolli usullari o‘smirlardagi nevrologik kasalliklarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilishda samarali vosita bo‘lib, tibbiyot sohasida katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ularning imkoniyatlari to‘g‘ri qo‘llanilsa, kasalliklarning oldini olishda va bemorlar hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlarda nevrologik kasalliklarni davolashda va aniqlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash haqida o‘ylab qolsam, bir tomondan bu juda katta umid baxsh etadi. Chunki, bu texnologiyalar o‘smirlarning miyasini batafsil o‘rganish, kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash usullarini ishlab chiqishga imkon beradi. Bu ularning hayot sifatini yaxshilashga va kelajakda sog‘lom hayot kechirishiga yordam beradi. Lekin, boshqa tomondan, bu sohada ham ba‘zi muammolar mavjud. Masalan, zamonaviy kompyuter texnologiyalari juda qimmatga tushishi mumkin, bu esa ularni hamma uchun mavjud qilmaydi. Bundan tashqari, bu texnologiyalarni qo‘llashda etik jihatlarni ham hisobga olish kerak. Masalan,

o'smirlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va ularning shaxsini himoya qilish muhimdir. O'smirlarda nevrologik kasalliklarni davolashda va aniqlashda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llashda, mening fikrimcha, eng muhim jihatlardan biri bu texnologiyalarni o'smirlarga moslashtirishdir. O'smirlar kattalarga qaraganda boshqacha tarzda o'rganishadi va o'zlarini ifoda etishadi. Shuning uchun, nevrologik kasalliklarni davolash va aniqlash uchun mo'ljallangan texnologiyalar o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Misol uchun, o'smirlarga moslashgantirilgan virtual reallik dasturlari ularga o'yinli va interaktiv tarzda o'rganishga yordam berishi mumkin. Bu ularga nevrologik kasalliklar haqida ko'proq ma'lumot olishga va davolanish jarayonida faolroq qatnashishga imkon beradi. O'smirlarda nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolashdan tashqari, ularga nevrologik kasalliklar haqida ma'lumot olishga yordam beradigan onlayn resurslar mavjud . Bu resurslar o'smirlarga o'zlarining ahvolini tushunishga , davolanish imkoniyatlari haqida ma'lumot olishga va boshqa o'smirlar bilan bog'lanishga yordam beradi . Ijtimoiy tarmoqlarda o'smirlar nevrologik kasalliklar bilan kurashuvchi boshqa o'smirlar bilan bog'lanishga va qo'llab - quvvatlash guruhlariga qo'shilishlari mumkin bo'ladi. Bu narsa ularga o'zlarini yolg'iz his qilmasliklari va boshqalardan tajriba olishiga yordam beradi.

Mening fikrimcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining o'smirlarda nevrologik kasalliklarni davolashda va aniqlashdagi o'rni nihoyatda muhimdir. Bu texnologiyalar sog'liqni saqlash sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda, ayniqsa, o'smirlarning nevrologik kasalliklarini aniqlash va samarali davolash imkoniyatlarini yaratmoqda. Ammo o'ylashimcha bu texnologiyalar ustida yanada ko'proq izlanishlar olib borilib ularni narxi arzonlashtirishga harakat qilinishi kerak. Bu orqali bu texnologiyalarni keng tarqatish mumkin. Shundagina o'smirlardagi nevrologik kasalliklar yanada kamaygan bo'lardi.

## ***RUHIY KASALLIKLARNI ZAMONAVIY TASHXISLASH,DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARI***

*Ibragimova Ziyodaxon Jalolidinovna  
FJSTI Gistologiya va Biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi  
Farg'ona, O'zbekiston*

*Yoqubjonova Dilnura Ahadjon qizi  
[yoqubjonovadilnura450@gmail.com](mailto:yoqubjonovadilnura450@gmail.com)  
+998902738511*

*FJSTI, Pediatriya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Bugungi kunda jamiyatda stress, depressiya, xavotir, ruhiy zo'riqish va boshqa psixik buzilishlar ko'payib bormoqda. Tezkor hayot sur'ati, ijtimoiy-psixologik bosimlar, turmushdagi muammolar ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Shu sababli ruhiy kasalliklarni erta aniqlash, zamonaviy usullar bilan samarali davolash va ularning oldini olish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, zamonaviy diagnostika texnologiyalari, psixoterapiya va farmakologik davolash vositalarining rivojlanishi bu boradagi yondashuvlarni takomillashtirishga imkon bermoqda. Ruhiy salomatlikni mustahkamlash nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlikning ham muhim omillaridan biridir. Shu jihatdan, ushbu mavzuni chuqur o'rganish bugungi kun tibbiyoti va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Tadqiqot maqsadi:**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ruhiy kasalliklarni zamonaviy tibbiy usullar asosida erta aniqlash, ularni samarali davolash hamda oldini olishga qaratilgan ilg'or yondashuvlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va umumlashtirishdir. Shuningdek, amaliyotda keng qo'llanilayotgan diagnostik texnologiyalar, psixoterapevtik metodlar va profilaktik choralarni o'rganish orqali ushbu sohadagi dolzarb muammolarga yechimlar taklif etish ham tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biridir.

### **Tadqiqot usullari va materiallari:**

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – ilmiy adabiyotlar, zamonaviy psixiatriya va nevrologiya bo'yicha maqolalar, xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining hisobotlari o'rganildi va tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli – an'anaviy va zamonaviy tashxis, davolash hamda profilaktika usullari o'zaro solishtirilib, samaradorlik darajalari baholandi.

Empirik usullar – mavjud statistik ma'lumotlar, klinik tadqiqotlar natijalari va ruhiy kasalliklar bo'yicha tajriba asosida to'plangan amaliy materiallar tahlil qilindi.

Deskriptiv (tasviriy) usul – zamonaviy tashxislash texnologiyalari (masalan, MRI, EEG, psixometrik testlar) va psixoterapevtik yondashuvlar ilmiy manbalar asosida batafsil tavsiflandi.

Tadqiqot materiali sifatida jahon va mahalliy ilmiy nashrlar, kasallik holatlari bo'yicha statistik ma'lumotlar, diagnostika protokollari, shuningdek, WHO va DSM-5 kabi manbalar asos qilib olindi.

### **Tadqiqot natijasi:**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ruhiy kasalliklarni erta aniqlashda neyrovizualizatsiya texnologiyalari (MRI, EEG), psixometrik testlar va genetik tekshiruvlar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Davolashda farmakoterapiya va psixoterapiyaning integratsiyalashgan yondashuvi eng samarali usul sifatida e'tirof etildi. Profilaktika choralardan stressni boshqarish, psixologik savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ruhiy kasalliklarning oldini olishda muhim omillar bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy yondashuvlar ruhiy salomatlikni yaxshilashda kompleks va tizimli ishlash zarurligini ko'rsatmoqda.

### **Xulosa:**

Ruhiiy kasalliklarni erta aniqlash, samarali davolash va oldini olish zamonaviy tibbiyotning ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, diagnostika texnologiyalari, psixoterapiya va farmakoterapiyaning zamonaviy usullari ruhiy salomatlikni tiklashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, profilaktik choralar — sogʻlom turmush tarzi, stressni boshqarish va psixologik yordamning mavjudligi ruhiy kasalliklarning tarqalishini kamaytiradi. Demak, ruhiy salomatlikni taʼminlashda kompleks, ilmiy asoslangan va tizimli yondashuv zarurdir.

## ***CLINICAL NEUROLOGICAL ASSESSMENT OF PATIENTS WITH SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS***

*Inomov F.U., Saidazizova Sh.Kh.*

Center for the development of professional qualification of medical workers:

Tashkent city, Republic of Uzbekistan. E-mail: [shahlo\\_7@mail.ru](mailto:shahlo_7@mail.ru), tel.:

+998932129986

**Relevance of topic.** Subacute sclerosing panencephalitis (SSPE) is a rare, progressive neurological disorder caused by persistent measles virus infection, often appearing years after the initial illness, even in immunized individuals (Bembeeva et al., 2024; Shaligram et al., 2024). It commonly begins with behavioral changes and myoclonic jerks, progressing to cognitive decline, severe motor impairment, and a vegetative state (Suryawanshi et al., 2024; Bembeeva et al., 2024). Neuroimaging often reveals subcortical and periventricular white matter changes, cerebral atrophy, and basal ganglia involvement, though these findings do not consistently correlate with EEG abnormalities or other clinical signs (Panda et al., 2024). Treatments like isoprinosine, antiepileptic drugs, and immunomodulators offer limited benefits, and many patients worsen despite intervention (Bhandari et al., 2024; Suryawanshi et al., 2024). The disease's course in vaccinated children suggests possible genetic immune dysfunction (Bhandari et al., 2024). Early diagnosis is essential, and robust immunization programs remain the most effective prevention (Bembeeva et al., 2024).

**Purpose of study.** The aim of this study is to evaluate the clinical neurological status of patients diagnosed with subacute sclerosing panencephalitis. It seeks to identify common neurological patterns and disease progression to support early diagnosis and improve clinical management.

**Materials and methods:** The study was conducted on children diagnosed with subacute sclerosing panencephalitis (SSPE) between 2019 and 2022. Clinical and demographic data, along with neuroimaging features and patient outcomes, were systematically analyzed. Diagnostic evaluation involved brain magnetic resonance imaging (MRI) and electroencephalography (EEG) to confirm SSPE, in combination with serological evidence of measles virus infection. Specifically, elevated antibody titers for measles in the serum, as well as the presence of

measles-specific IgG in the cerebrospinal fluid (CSF), were key indicators supporting the diagnosis. These methods enabled a comprehensive assessment of both the clinical presentation and neurological progression of the disease.

**Results:** Among the 120 patients diagnosed with subacute sclerosing panencephalitis from 2019 to 2022, the majority were male (62%) with a median age of onset of 7.5 years. Initial symptoms commonly included behavioral changes (74%) and myoclonic jerks (81%). Cognitive decline was observed in 88% of cases, while motor impairments progressed in 91% of patients, leading to a vegetative state in 56% during the later stages.

Electroencephalographic (EEG) abnormalities, particularly periodic slow-wave discharges, were noted in 86% of the patients. MRI findings revealed subcortical and periventricular white matter changes in 72% and cerebral atrophy in 64%. Basal ganglia involvement was documented in 39% of cases. Elevated serum measles IgG titers were present in all patients, and CSF analysis confirmed intrathecal synthesis of measles-specific IgG in 93% of cases.

Despite treatment with antiviral agents, immunomodulators, and supportive therapy, clinical improvement was minimal. The mortality rate over the study period reached 34%.

**Discussion.** The clinical course observed in this cohort reflects the classical progression of SSPE as described in global literature, with early behavioral and motor symptoms rapidly advancing to severe neurological deterioration. The predominance of myoclonic jerks and cognitive decline aligns with findings from studies by Suryawanshi et al. (2024) and Bembeeva et al. (2024), confirming the diagnostic reliability of these early signs.

Neuroimaging findings were consistent with previous reports by Panda et al. (2024), with white matter changes and cerebral atrophy being the most frequent abnormalities. However, similar to their findings, no strong correlation was observed between MRI features and EEG patterns, reinforcing the need for multimodal diagnostic approaches.

The limited efficacy of current therapeutic interventions highlights the urgency of exploring new treatment options. The high prevalence of SSPE among previously vaccinated children, as reported by Bhandari et al. (2024), may suggest underlying genetic or immunological susceptibilities requiring further investigation.

**Conclusion.** This study emphasizes the aggressive nature of subacute sclerosing panencephalitis and the importance of early clinical and neurological recognition. Despite available diagnostic tools and treatments, outcomes remain poor, with a significant proportion of patients progressing to a vegetative state or death. Early diagnosis, multidisciplinary care, and strengthened measles immunization programs are critical to managing and preventing SSPE. Further research is needed to explore novel therapeutic strategies and genetic factors influencing disease susceptibility.

## **ATROF-MUHIT OMILLARINING INSON ORGANIZMI VA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti  
Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi talabasi  
Sultonov Shaohjahon Xayrulla o'g'li  
Ilmiy raxbar: Ismoilov Dilmurod*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada atrof-muhit omillarining inson organizmi va psixologiyasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tabiiy, ijtimoiy va texnogen omillar inson salomatligi, fiziologik holati hamda ruhiy barqarorligiga qanday ta'sir qilishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, salbiy muhit ta'sirining oqibatlari, ruhiy holatdagi o'zgarishlar, psixosomatik kasalliklar, ularni kamaytirish yo'llari hamda ijobiy muhit yaratishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Maqolada sog'lom muhit shakllantirishda har bir shaxs va jamiyatning o'rnini alohida ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** atrof-muhit, inson salomatligi, psixologik holat, tabiiy omillar, ijtimoiy muhit, stress, ekologiya, ruhiy salomatlik, texnogen ta'sirlar, sog'lom turmush tarsi.

Atrof-muhit – bu inson yashaydigan, ishlaydigan, dam oladigan va rivojlanadigan tashqi sharoitlar majmui bo'lib, u organizm faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Bu omillar tabiiy, ijtimoiy, ekologik va texnogen xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Inson tanasi va psixikasi doimo tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib, bu ta'sirlar uning salomatligi, ruhiy holati va hayot sifati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonda global ekologik muammolar, urbanizatsiya, ijtimoiy notinchliklar va texnologik taraqqiyot inson salomatligi va psixikasiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda.

Atrof-muhit omillari turlari juda keng ko'lamni qamrab oladi. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy, ijtimoiy va texnogen omillar. Tabiiy omillarga havo harorati, iqlim, quyosh nuri, havo bosimi, namlik darajasi, tovushlar va ifloslanish kiradi. Masalan, haddan tashqari yuqori harorat yurak-qon tomir tizimiga og'irlik qiladi, past harorat esa qon aylanishining sekinlashishiga sabab bo'ladi. Shovqin esa eshitish a'zolari bilan birga markaziy asab tizimini ham zo'riqtiradi. Havo ifloslanishi (ayniqsa yirik sanoat hududlarida) nafaqat nafas olish tizimiga, balki immunitetga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy omillar esa inson yashayotgan ijtimoiy muhit – oilaviy sharoit, maktab yoki ish joyi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, zo'ravonlik yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu omillar shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligiga bevosita ta'sir qiladi. Texnogen omillar esa inson tomonidan yaratilgan sun'iy muhit – sanoat chiqindilari, kompyuter va telefon nurlanishi, texnologik tovushlar va radiatsiyani o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit omillari inson organizmiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirlar organizmning fiziologik tizimlari orqali namoyon bo'ladi. Masalan, haddan tashqari ifloslangan havo surunkali bronxit, astma, yurak ishemik kasalligi kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'p hollarda organizm atrof-muhitning salbiy ta'sirlariga adaptatsiya qilolmaydi va immunitet susayishi, uyqu buzilishi, ovqat hazm qilish tizimi izdan chiqishi, qon bosimi beqarorligi kabi holatlar yuzaga keladi. Shuningdek, uzoq muddatli shovqinli muhit yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining oshishi, umumiy charchoq holatining kuchayishiga olib keladi. Radiatsiya esa hujayra tuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, onkologik kasalliklar xavfini oshiradi. Bularning barchasi insonning jismoniy salomatligini izdan chiqarib, uning mehnat faoliyati va umuman hayot sifatini pasaytiradi.

Inson psixologiyasi ham atrof-muhitdan mustasno bo'lmagan murakkab tizimdir. Ruhiy holatga iqlim, yorug'lik darajasi, ijtimoiy munosabatlar, xavfsizlik hissi, stress omillari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq davom etadigan qorong'ulik va quyosh nurlarining yetishmasligi depressiv holatga olib kelishi mumkin (bunga sezilarli darajada shimoliy hududlarda yashovchi insonlar duch keladi). Shaharlardagi stressli muhit, trafik, ishdagi bosim, ijtimoiy tengsizlik insonning ruhiy barqarorligini buzadi. Natijada xavotirli buzilishlar, depressiya, agressiya, psixosomatik kasalliklar (masalan, gastrit, yurak og'rig'i, bosh og'rig'i) yuzaga keladi. Bolalar va o'smirlar bu borada ayniqsa zaif guruh hisoblanadi. Ular atrof-dagi muhitga tez moslashsa-da, salbiy psixologik sharoit (masalan, oilaviy mojarolar, zo'ravonlik, befarqlik) ularning shaxs sifatida shakllanishiga va ijtimoiy moslashuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, salbiy muhit omillarining oldini olish va sog'lom, ijobiy muhitni shakllantirish jamiyatning har bir a'zosi uchun muhim vazifadir. Eng avvalo, ekologik madaniyatni yuksaltirish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, stressni yengish yo'llarini o'rgatish, psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish zarur. Ota-onalar, pedagoglar, ish beruvchilar, sog'liqni saqlash mutaxassislari va shaharsozlik sohasi vakillari birgalikda harakat qilgan holda, inson salomatligi uchun xavfsiz, toza va qulay muhit yaratishga hissa qo'shishlari kerak. Shu bilan birga, shaxsning o'z-o'ziga e'tibori – ya'ni dam olishni bilish, sport bilan shug'ullanish, zararli odatlardan voz kechish, emotsional barqarorlikka intilish ham muhim omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit omillari inson organizmi va psixologiyasi bilan chambarchas bog'liq. Har qanday tashqi omil, u ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'i nazar, insonning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun har bir inson, har bir jamiyat muhit bilan ongli ravishda munosabatda bo'lishi, uni muhofaza qilish va sog'lomlashtirish yo'lida harakat qilishi zarur. Sog'lom muhit – sog'lom jamiyat garovidir.

## **MARKAZIY ASAB TIZIMI DEGENERATSIYASI DOIRASIDA PARKINSON KASALLIGI: ANATOMIK VA FUNKSIONAL TAHLIL**

*Ma'murova Marjona Ulug'bek qizi  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda markaziy asab tizimi degeneratsiyasi bilan bog'liq, nevrologik funksiyalar buzilishi bilan kechuvchi Parkinson kasalligi keksalar orasida ko'p uchramoqda. Kasallikning anatomik asoslari, xususan substantia nigra va nigrostrial yo'llarning strukturaviy o'zgarishlari yoritiladi. Patofiziologik jihatdan dofaminergik neyronlarning yo'qolishi, disfunktsiya va alfa-sinuklein agregatsiyasi asosiy rol o'ynashi ko'rsatib o'tiladi. Biokimyoviy jarayonlar va ularni to'g'rilashga qaratilgan farmakologik yondashuvlar, shu jumladan levodopa va dofamin agonistlari orqali terapiya asoslari tahlil qilinadi. Tezisdan Parkinson kasalligini chuqur tushunish uchun tarmoq asosidagi ilmiy yondashuv namoyish etiladi.

**Kalit so'zlar.** Parkinson kasalligi, dofamin, substantia nigra, bradikineziya, tremor, L-dopa, dofamin agonistlari, Deep Brain Stimulation (DBS), neurodegeneratsiya, neurotransmitterlar

Parkinson kasalligi — markaziy asab tizimining surunkali progresslovchi degenerativ kasalligi bo'lib, asosan substantia nigra pars compacta'dagi dofaminergik neyronlarning yo'qolishi bilan xarakterlanadi. Ushbu neyronlar bazal gangliyalari tizimi orqali harakatlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etadi. Anatomik jihatdan bazal gangliyalari, kaudat yadrosi, globus pallidus, substantia nigra, va subthalamic nucleus kabi tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa substantia nigra'dan striatumga (putamen va kaudat yadrosi) bo'lgan dofaminergik yo'l Parkinson kasalligida asosiy zararlanuvchi yo'nalishdir.

Parkinsonda asosiy o'zgarish bu dofamin miqdorining kamayishi. Dofamin —harakat, motivatsiya va rag'bat tizimida ishtirok etuvchi asosiy neurotransmitterlardan biri. Substantia nigra pars compacta neyronlarining degeneratsiyasi natijasida striatumda dofamin darajasi 60–80% gacha kamayadi, bu esa bir qator klinik simptomlarga olib keladi. Bundan tashqari, Parkinsonda alfa-sinuklein oqsili noto'g'ri sintez bo'lishi va Lewy tanachalari shakllanishi kuzatiladi. Bu oqsil agregatlari neyron ichida to'planib, ularning faoliyatini buzadi bu esa o'z navbatida apoptozga olib keladi. Ushbu jarayon neurodegeneratsiyaning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Nerv o'tkazuvchanligida dofamin va asetil xolin ketma ket ishtirok etadi shu bilan bir qatorda bir biriga qarama-qarshi ta'sir o'tkazadi ya'ni dofamin muskullarda relaksatsiya holatini keltirib chiqarsa asetil xolin aksincha qisqartiradi. Sinaps bo'shlig'ida dofaminergik retseptorlar degeneratsiyaga uchragandan keyin o'z-o'zidan asetil xolin dominantlik qilishni boshlaydi. Bu muskullardagi doimiy qo'zg'aluvchanlik, tremor, bradikineziya keyinchalik demensiyaga olib keladi. Genetik mutatsiyalar (masalan, LRRK2, PARK7, PINK1) ham Parkinson rivojlanishida rol o'ynaydi.

Kasallikning asosiy simptomlar: tremor, bradikineziya, rigidlik, postural buzilishlar, depressiya, uyqusizlik, vegetativ va kognitiv buzilishlar. Simptomlar asta-sekin rivojlanadi va har bir bemorda har xil kechadi.

Diagnostika klinik asosda amalga oshiriladi: Klinik mezonlar (L-dopaga javob, motor simptomlar) ,MRI va DAT scan, nevropsixologik testlar, differensial tashxis muhim: atipik parkinsonizm va dori-induktsiyalangan holatlar.

Parkinson kasalligida dori vositalarining qo'llanilishini asosiy maqsadi — sinapsdagi bor dofamin effektini uzoqroqqa yetkazib berish va atsetil xolin miqdorini kamaytirish. Bemorga to'gridan to'g'ri dofaminli dori vositalarini berish foyda bermaydi, sababi dofamin miya hujayralarida gemetoensefalitik baryerdan o'ta olmaydi. Asosan qo'llaniladigan dorilar

a) L-dopa (levodopa): Eng samarali dorilardan biri.L-dopa dofamin sintezini rag'batlantiradi u bilan birga qo'llaniladigan Karbidopa esa dofaminning asosiy qismini miyada qolishini ta'minlaydi

b) Siklodol: N xolinoretseptorni bloklab atsetil xolin miqdorini kamaytiradi. Bu tremorni kamaytiradi.

c) Benzitropin:xolinergik neyrondagi M5 retseptorlarini bloklab atsetil xolin miqdorini kamaytiradi va dofamin so'rilib ketishini ham sekinlashtiradi. Bunda sinaps bo'shlig'idagi dofamin effektinuzoqroq cho'ziladi

d) Zamonaviy davolash: DBS (Deep Brain Stimulation) — neyroxirurgik usul. Hali bu izlanishlar oxiriga yetmagan lekin olimlar hozirda neyroxirurgik yo'l bilan dofamin retseptorlaridagi degeneratsiyani oldini olish va natijada Parkinson kasalligini to'liq davolashning nazariy yechimlarini amaliyotga tadbiiq etishmoqchi

**Xulosa.** Parkinson kasalligi markaziy asab tizimining surunkali, progresslovchi kasalligi bo'lib, dopaminergik neyronlarning zararlanishi asosida rivojlanadi. Kasallik simptomlarini yengillashtirish uchun zamonaviy farmakologik va neyroxirurgik usullar mavjud. Gen terapiyasi va hujayra asosidagi yangi davolash usullari kelajakda davolash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Erta tashxis va kompleks yondashuv bemorlarning hayot sifatini sezilarli yaxshilaydi.

## ***SUBKLINIK GIPOTERIOZ KASALLIGIDA UCHRAYDIGAN NEVROLOGIK BELGILARNING YOSHGA BOG'LIQ HUSUSIYATLARI***

*Marupov Abrorjon Toshturg'un o'g'li  
Tayanch doktorant, assistant, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

**Kirish.** Subklinik gipoterioz (SG) – qalqonsimon bez gormonlarining yetarlicha ishlab chiqarilmasligi, biroq klinik jihatdan yaqqol namoyon bo'lmagan holatdir. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, SG ayollarda erkaklarga nisbatan 4-8 barobar ko'p uchraydi va yosh o'tgan sari uchrash chastotasi ham ortadi. Bu esa SG fonida rivojlanadigan nevrologik belgilarni yosh davrlariga qarab baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

**Maqsad.** Subklinik gipoterozda uchraydigan nevrologik belgilarni aniqlash va ularning yoshga qarab qanday namoyon bo'lishini ilmiy asosda o'rganish.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqotda 60 nafar subklinik gipoteroz bilan og'riqan bemor ishtirok etdi. Ular uchta yosh guruhiga ajratildi:

- 1-guruh: 20–30 yosh (yoshlar) – 20 nafar
- 2-guruh: 30–50 yosh (o'rta yoshdagilar) – 20 nafar
- 3-guruh: 50 - 60 yosh (keksalar) – 20 nafar

Bemorlar TSG, T4, UTT tekshiruvlaridan o'tkazildi. Klinik-neyropsixologik so'rovnomalari (MMSE, Moc-A shkalasi) qo'llandi.

**Natijalar.**

**1-guruh** (20–30 yosh): Asosiy shikoyatlar – umumiy holsizlik, charchoqlik, diqqatning pasayishi, bosh og'rig'i. Depressiv belgilar kam uchradi (15%). Elektrofiziologik o'zgarishlar sezilarli emas.

**2-guruh** (30–50 yosh): Diqqat va xotiraning pasayishi, irritabilitet, uyqu buzilishi, ko'p hollarda (65%) depressiv simptomatika. EEGda alfa-ritm susaygan, EMGda neyromuskulyar yetishmovchilik izlari qayd etildi.

**3-guruh** (50-60 yosh): Kognitiv buzilishlar (70%), yengil demensiyaga o'xshash klinik ko'rinishlar, tremor, distal paresteziyalari. MMSE ballarining pasayishi kuzatildi. EEGda diffuz tormozlanish, EMGda periferik neyropatiya belgilariga o'xshash o'zgarishlar.

**Tahlil va muhokama.** Yosh o'sishi bilan subklinik gipoteroz fonida nevrologik simptomlar kuchayadi va murakkablashadi. Yosh bemorlar bu simptomlar asosan astenik sindrom bilan cheklangan bo'lsa, o'rta va keksa yoshdagi bemorlarda kognitiv va emosional buzilishlar, shuningdek, periferik asab tizimi disfunktsiyasi bilan kechadi. Gormon yetishmovchiligi fonida miya metabolizmining sekinlashuvi, asab tolalarining miyelin qobig'ining degeneratsiyasi bu simptomlarning patogenezida asosiy rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Subklinik gipoteroz yoshi o'tgan bemorlarda chuqurroq nevrologik buzilishlar bilan kechadi. Ushbu holatlarning erta diagnostikasi va zamonaviy neyroendokrin yondashuv asosida davolash taktikasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, 40 yoshdan yuqori bemorlar orasida muntazam skrining o'tkazish, TSH va T4 monitoringi, shuningdek, nevrologik baholash usullarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

## **GIPERFAOLLIK SINDROMINING NEYROBIOLOGIK ASOSLARI VA DAVOLASH YONDASHUVLARI.**

*Muhammadjonova Ruxshona Davronbek qizi  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, 1-bosqich talabasi*

**Mavzuning dolzarbligi.** Diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik sindromi - DYGS bolalarda ko'p uchraydigan nevropsixologik holatlardan biri bo'lib, u diqqatni jamlay olmaslik, impulsivlik va yuqori darajadagi harakatchanlik bilan tavsiflanadi. Bu holat asosan markaziy asab tizimidagi neyrobiologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Ushbu tezisda giperfaollik sindromining neyrobiologik sabablari va uni davolashda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar berilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik sindromining (DYGS) neyrobiologik sabablari hamda ularni davolashda tabiiy vositalar va rehabilitatsion mashqlarning samaradorligini tahlil qilishdir. Ushbu yondashuvlarning an'anaviy dorivor terapiyaga qo'shimcha sifatidagi ahamiyatini o'rganishdir.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Miya faoliyatini o'rganish bo'yicha so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, giperfaollik bilan og'rigan bemorlarda frontal korteks va striatum (chiziqli tana) sohalarining faoliyati pasaygan bo'ladi. Giperfaollik sindromi diagnostikasi asosan klinik kuzatuv va maxsus psixologik testlar orqali amalga oshiriladi. Eng muhim jihat - farzandning oddiy shovqinli xatti-harakatlarini DYGS bilan adashtirib yubormaslik muhim. Agar bolaning ota-onasidan biri DYGS bilan og'rigan bo'lsa, bola ham bu sindromni rivojlantirish xavfi yuqori bo'ladi. Homiladorlik davrida ona tanasida yuzaga kelgan infeksiyalar, stress, yoki chekish va alkogoldan foydalanish kabi xavf omillari ham bolaning miya rivojiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

**Tadqiqot natijalari.** Davolashda an'anaviy dori vositalari samarali bo'lsa-da, ular ko'plab nojo'ya ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, pediatriya va psixologiyada tabiiy vositalar va jismoniy mashqlarga asoslangan yondashuvlar keng ommalashmoqda, lekin dorivor terapiyaga qo'shimcha ravishda tabiiy vositalar va mashqlar muhimdir. Ayniqsa omega-3 yog' kislotalari diqqat va kognitiv funksiyalarni yaxshilashda samarali bo'lib, baliq yog'i yoki zig'ir urug'i orqali organizmga yetkaziladi. Magniy va sink kabi mikroelementlar asab tizimining muvozanatli ishlashini ta'minlab, impulsivlikni kamaytiradi. Bundan tashqari, rehabilitatsion yondashuvlar, jismoniy faollik, suzish, yugurish, diqqatni rivojlantiruvchi o'yinlar, nafas mashqlari va meditatsiya texnikalari simptomni kamaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Giperfaollik sindromi faqat bola tarbiyasidagi muammolar natijasi emas, balki murakkab neyrobiologik asosga ega bo'lgan holatdir. Bunday bolalarni tushunish, to'g'ri tashxislash va individual yondashuv orqali ular jamiyatda o'z o'rnini topa oladi.

## **YORUG‘LIK TERAPIYASINING FIZIK MEXANIZMLARI VA MIYA QON AYLANISHINI YAXSHILASHDAGI ROLI**

*Qosimova Gulnoza Soyibjonovna  
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute*

**Mavzuning dolzarbligi.** Asab kasalliklar dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlash tizimining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklar nafaqat inson hayot sifatini keskin pasaytiradi, balki davolashdagi murakkabliklar bilan ham ajralib turadi. So‘nggi yillarda yorug‘lik terapiyasi - fototerapiya nevrologiyada yangi davolash usuli sifatida rivojlanmoqda. Uning miya qon aylanishini yaxshilashdagi roli tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki qon aylanishining buzilishi ko‘plab asab patologiyalarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

**Tadqiqot maqsadi.** Yorug‘lik terapiyasining fizik asoslarini va infraqizil spektrdagi nurlanishning miya qon aylanishiga ta‘sirini aniqlash orqali uning asab kasalliklarini davolashdagi samaradorligini ilmiy jihatdan o‘rganish.

**Materiallar va usullar.** Asab tizimining funksional holatini yaxshilashda yorug‘lik energiyasining biologik to‘qimalarga ta‘siri asosan elektromagnit to‘lqinlarning so‘rilishi, tarqalishi va hujayra darajasida fotokimyoviy reaksiyalarni yuzaga keltirishga asoslanadi. Ushbu jarayonlarni fizik jihatdan tushuntiruvchi asosiy qonuniyatlardan biri — Lambert-Ber qonuni bo‘lib, u yorug‘lik intensivligining to‘qima ichida eksponensial ravishda kamayishini ifodalaydi:

$$I = I_0 e^{-k_\lambda l}$$

$I$ - chiqayotgan yorug‘lik intensivligi,  $I_0$ - moddaga kiradigan yorug‘lik intensivlik,  $k_\lambda$ - to‘qimaning so‘rilish koeffitsienti,  $l$ -yorug‘likning to‘qima ichidagi o‘tish uzunligi.

To‘lqin uzunligi 600–1100 nm oralig‘i ya‘ni, qizil va infraqizil spektrida so‘rilish koeffitsienti past bo‘lib, yorug‘likning bosh suyagi va miya to‘qimalariga chuqur kirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Yorug‘lik terapiyasining klinik samaradorligini oshirishda fizik parametrlarni - to‘lqin uzunligi, intensivlik va ta‘sir vaqtini optimallashtirish muammolari mavjud. Shu bois, yorug‘lik energiyasining biologik to‘qimalarga ta‘sirini modellashtirish va tibbiy apparatlarning texnik imkoniyatlarini mukammal o‘rganish zarur.

Tadqiqotda asab kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan yorug‘lik terapiyasi apparatlari hamda yorug‘lik manbai sifatida qizil nur 630–680 nm va infraqizil 800–1000 nm spektr oralig‘idagi LED va lazer diodlar tanlandi. Ushbu to‘lqin uzunliklari miya to‘qimalariga chuqur kirib, hujayra darajasida bioenergetik jarayonlarni faollashtirishga yordam beradi.

**Natijalar.** Yorug‘lik terapiyasining fizik qonuniyatlarga muvofiq miya to‘qimalarida samarali so‘rilishini va qon aylanishini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Natijalar infraqizil spektrdagi yorug‘lik to‘lqinlari 900 nm atrofida bosh suyak va miya to‘qimalariga chuqur kirib, energiyaning ko‘proq qismini hujayralarga yetkazishini ko‘rsatdi. Bu esa biologik faollik uchun muhim shart hisoblanadi. Haddan tashqari yuqori intensivlik yoki uzoq vaqt davomida ta’sir hujayralarda oksidlovchi stress va toksik jarayonlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, optimal terapiya va individual bemor xususiyatlarini hisobga olish zarur.

**Xulosa.** Yorug‘lik terapiyasining fizik mexanizmlari va uning miya qon aylanishini yaxshilashdagi roli yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar yorug‘likning to‘qimalar ichida so‘rilishi, tarqalishi va hujayra darajasida energetik jarayonlarni rag‘batlantirishda asosiy omil ekanligini ko‘rsatdi. Yorug‘lik terapiyasining fizik qonuniyatlari va uning miya qon aylanishiga ta’siri haqidagi bilimlar asab kasalliklarini davolashda ushbu usulning samaradorligini oshirish va yangi tibbiy apparatlarni yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## ***BOLALARDAGI O‘TKIR OSTI SKLEROZLANUVCHI PANENSEFALIT KASALLIGINI TASHXISLASH***

*Sattorov S. Sh*  
*Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti*

### **Mavzuning dolzarbligi**

O‘tkir osti sklerozlanuvchi panensefalit (O‘OSP) qizamiq virusining kechki asorati sifatida yuzaga chiqadigan kam uchraydigan, biroq xavfli kasallik bo‘lib, bolalarda asosan maktabgacha yoki maktab yoshida aniqlanadi. Kasallikning kech aniqlanishi, tez rivojlanishi va davoga yomon javob berishi uni o‘z vaqtida aniqlash muhimligini ko‘rsatadi.

### **Tadqiqot maqsadi**

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad — O‘OSPning erta klinik alomatlarini aniqlash, tashxis qo‘yishda laborator va instrumental usullar ahamiyatini baholash va erta aniqlash samaradorligini ko‘rsatishdan iborat.

### **Tadqiqot materiallari va usullari**

Tadqiqot uchun 2020–2024 yillar davomida viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida kuzatuvda bo‘lgan 15 nafar O‘OSP tashxisli bemorlarning kasallik tarixi (qizamiq tarixi), nevrologik simptomlari, qizamiqqa qarshi antitanachalar (serologiya) hamda elektroensefalogramma (EEG) va miya rezonans tomografiyasi (MRT) natijalari va klinik simptomlar tahlil qilindi.

### **Tadqiqot natijalari**

Bemorlarning 75%ida birinchi bosqichda xulq o'zgarishi va maktabdagi muvaffaqiyat pasayishi qayd etilgan. O'OSPga chalingan bolalarda nevrologik buzilishlar kuzatildi. Bemorlar orasida kognitiv pasayish, miyoklonik tortishishlar va ataksiya kuzatildi. EEGda yuqori kuchlanishli dipfazik to'liqinli davriy komplekslar (Radermecker komplekslari) qayd etildi . CSFda qizamiq virusiga qarshi IgG antitanachalar darajasi yuqori bo'ldi . MRTda kortikal atrofiya va oq modda lezyonlari aniqlangan

### **Xulosa**

OOSP asosan qizamiq infeksiyasidan so'ng 7–10 yil o'tgach paydo bo'ladi va bolalarda og'ir nevrologik simptomlar bilan kechadi . Uni erta tashxislash uchun kasallikning klinik belgilari, EEG va CSF antitanacha tahlili katta ahamiyatga ega . OOSP profilaktikasida qizamiqqa qarshi keng qamrovli emlash va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar muhim rol o'ynaydi. Vaqtida aniqlangan holatlarda palliativ va simptomatik yondashuvlar bemorning hayot sifatini saqlab qolishda yordam beradi.

## ***COGNITIVE IMPAIRMENT IN CEREBRAL AMYLOID ANGIOPATHY: THE EXAMPLE OF THE CITY OF FERGANA.***

*Rakhimbayeva Gulnora Sattarovna  
Head of the Department of Neurology, TashMA*

*Saydaliev Saidaziz Baxtiyor ugli  
Assistant of the Department of Neurology and Psychiatry, FMIPH*

**Introduction:** Patients with CAA may have a wide clinical spectrum, including cognitive decline, lobar intracranial hemorrhage, and transient focal neurological episodes

**The purpose of the study:** Investigate and compare nature, progression, and underlying mechanisms of cognitive impairment in Cerebral amyloid angiopathy (CAA) which is neurodegenerative condition associated with the accumulation of amyloid-beta protein in the brain.

**Materials and methods of research.** In Fergana City, 120 patients with a total cognitive impairment were studied in the individual. Of these, 53 are female and 67 are male, with ages ranging from 50-85 years, with an average age of 67.5 years. Patients were subjected to MoCa, Frontal assessment Battery tests, and MRI examinations. Based on the results of the investigation, 13 of them (11%) CAA and 39 (32.5%) AD and the rest with various types of dementia. MRI scans were examined based on the Boston criterion and resulted in 5 (40%) patients with CAA

having lobar hematoma in the past, while the rest (60%) found varying degrees of supracortical, cortical lacunar lesions, and cortical superficial sideroses. Cerebral atrophy, hippocampal atrophy and periventricular leukoariosis were detected in patients with AD. Patients with CAA and AD were tested for MoCa, Frontal assessment Battery. The MoCa test averaged 24 points in patients with CAA, compared to 20 points in AD. The FAB test averaged 10 points in CAA patients and 7 points in AD patients.

**The results of the study.** Cognitive impairment in CAA occurred with and without lobar hematomas, as well as supracortical, cortical lacunar lesions, and cortical superficial sideroses were also detected early cognitive disturbances. Overall, 5 patients out of 13 CAA patients had lobar hematomas and cognitive impairment was more severe in this group of patients, in addition, in 2 patients of the CAA patients with lobar hematomas, cognitive impairment developed within 1 year after the hemorrhage, while the remaining 3 patients had cognitive impairment before the hemorrhage. In the remaining 8 patients with various lacunar lesions, cognitive impairment was detected earlier than in the above. When comparing cognitive characteristics of AD and CAA, early memory impairment was mainly observed in AD patients, while in CAA, features such as attention problems, planning, and slowing of thinking prevailed over memory impairment.

**Conclusions.** CAA and AD are more common in older patients and their cognitive impairments often present in similar ways. However, differentiating them requires additional tests, such as MoCa, FAB and imaging techniques such as MRI and PET.

## ***ALLIMENTLAR ANEMIYASIDA BOSH OG'RIQLAR NEVROLOGIK JIHATLAR***

*Sharifjonov Oybek Otabek o'g'li*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Davolsah ishi" yonalishi 1- bosqich  
talabasi*

*Tilyaxodjayeva Gulbahor Batirovna*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot inatituti anatomiya kanfedrasi asisenti*

*Email: [sharifjonovoybek2004@gmail.com](mailto:sharifjonovoybek2004@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy tezisda alimentlar tanqisligi — ya'ni temir, B12 vitamini va foliy kislotasining yetishmasligi natijasida vujudga keluvchi anemiyalar va ular bilan bog'liq bosh og'riqlari keng yoritiladi. Bosh og'rig'i anemiyaning ko'p uchraydigan, ammo ko'pincha nazardan chetda qoladigan nevrologik simptomlaridan biridir. Ushbu og'riq sindromining rivojlanishida gipoksiya, metabolik disbalans, demiyelinizatsiya va vegetativ disfunktsiya kabi

omillar muhim rol o'ynaydi. Klinik belgilar, diagnostika usullari va davolash yondashuvlari zamonaviy ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Anemiya, bosh og'rig'i, temir tanqisligi, B12 vitamini, gipoksiya, markaziy asab tizimi, demiyelinizatsiya, vegetativ disfunktsiya, nevropatologiya.

Anemiya — bu eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining kamayishi bilan tavsiflanadigan, organizm to'qimalarida kislorod tashilishi va ta'minotining buzilishi natijasida yuzaga keladigan patologik holatdir. Alimentar anemiya esa muhim oziq moddalarning yetishmovchiligi tufayli paydo bo'ladigan anemiya turi hisoblanadi. Temir, B12 vitamini va foliy kislotasi — qon hosil bo'lish va asab tizimi faoliyati uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlardir. Ularning tanqisligi nafaqat gematologik, balki nevrologik muammolarga ham olib keladi. Ayniqsa, bosh og'rig'i aliment anemiyalarining keng tarqalgan, ammo ko'p hollarda noto'g'ri talqin etiladigan belgilaridan biridir.

Alimentar anemiyalar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: Temir tanqisligi anemiyasi (TTA): ovqat orqali temir yetishmasligi, surunkali qon yo'qotish, ichakdan yomon so'rilish. B12 vitamini yetishmovchiligi: hayvoniy mahsulotlar iste'mol qilmaslik, pernitsioz anemiya, ichak kasalliklari. Foliy kislotasi tanqisligi: noto'g'ri dieta, homiladorlik, alkogolizmdan keyingi buzilishlar.

Nevrologik simptomlarning patofiziologiyasi: Bosh og'rig'i — alimentar anemiyada eng ko'p uchraydigan nevrologik belgidir. Uni vujudga keltiruvchi asosiy mexanizmlar quyidagilardir: Gipoksik sindrom, metabolik disbalans, demiyelinizatsiya, vegetativ disfunktsiya

Alimentar anemiyaga xos bosh og'rig'i quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: Diffuz va bosuvchi xarakterga ega. Har kuni takrorlanuvchi, og'ir jismoniy va aqliy ishda kuchayuvchi. Ensada, peshonada yoki butun bosh sohasida seziladi. Ko'pincha bosh aylanishi, charchoq, e'tiborning pasayishi bilan birga kuzatiladi  
Diagnostikasi: Umumiy qon tahlili: gemoglobin, eritrotsitlar, MCV, RDW. Biokimyoviy tahlillar: temir, ferritin, B12, foliy kislotasi. Nevrologik ko'rik: reflekslar, koordinatsiya, sezuvchanlik tekshiruvi. Qo'shimcha tekshiruvlar: EEG, MRT

Davolashda etiologik va simptomatik yondashuv qo'llaniladi: Temir preparatlari, B12 vitamini in'eksiyalari, foliy kislotasi, og'riqni kamaytiruvchi dori vositalari, nootropik va neyroprotektorlar

**Xulosa:** Alimentar anemiyalar — bu organizmga zarur moddalar yetishmasligi bilan kechuvchi holatlar bo'lib, nafaqat qon tizimiga, balki asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bosh og'rig'i alimentar anemiyaning ilk va muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Uning sabablari gipoksiya, metabolik buzilish, demiyelinizatsiya va vegetativ disfunktsiyadir. Tezkor va to'g'ri tashxis qo'yish, kompleks yondashuv asosida davolash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Tibbiyot amaliyotida anemik bosh og'rig'ini e'tibordan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

## ***MIOKARD INFARKNI SABABLARI, BELGILARI, XAVFLI OMILLARI VA DAVOLASH***

*Sharifjonov Oybek Otabek o'g'li*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot inatituti 1-bosqich talabasi*

*Tilyaxodjayeva Gulbahor Batirovna*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot inatituti anatomiya kanfedrasi asisenti*

*Email: [sharifjonovoybek2004@gmail.com](mailto:sharifjonovoybek2004@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Miokard infarkti yurak mushagining kislorod yetishmovchiligi tufayli nekrozga uchrashi bilan tavsiflanadigan og'ir klinik holat bo'lib, yurak ishemik kasalligining xavfli shakllaridan biridir. Ushbu maqolada miokard infarktining etiologiyasi, xavf omillari, klinik belgilarining turli shakllari, tashxis qo'yishdagi muammolar, zudlik bilan ko'rsatilishi kerak bo'lgan yordam hamda kasallikni davolash va profilaktika choralari yoritilgan. Miokard infarktini erta aniqlash va samarali yordam ko'rsatish bemorning hayotini saqlab qolish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Miokard infarkti, yurak ishemik kasalligi, nekroz, koronar arteriyalar, og'riq sindromi, trombolizis, atipik shakllar, profilaktika, yurak yetishmovchiligi.

**Kirish:** Yurak-qon tomir kasalliklari butun dunyo bo'ylab o'limga olib keluvchi eng yetakchi sabablardan biri bo'lib qolmoqda. Ularning orasida miokard infarkti alohida o'rin tutadi, chunki bu kasallik to'satdan boshlanadi, og'ir kechadi va ko'plab asoratlarga olib kelishi mumkin. Miokard infarkti yurak mushagining qon bilan ta'minlanishining keskin buzilishi natijasida rivojlanib, miokard to'qimasining o'limiga olib keladi. Kasallikning erta tashxisi, to'g'ri davolash va profilaktik choralarni ko'rish — o'lim va nogironlikning oldini olishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada miokard infarktining sabablari, xavf omillari, klinik ko'rinishlari, davolash usullari va oldini olish choralari tahlil qilinadi.

**Miokard infarkti:** O'tkir holat, yurak ishemik kasalligining klinik shakli, to'liq yoki qisman qon yetishmovchiligi natijasida yurak muskul to'qimasining (**miokard**) nekrozi (o'limi) tufayli yuzaga keladi. Bu butun yurak-qon tomir tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi va bemorning hayotini xavf ostiga qo'yadi.

Miokard infarktining asosiy va eng ko'p tarqalgan sababi — yurak mushagini qon bilan va shunga mos ravishda kislorod bilan ta'minlaydigan toj (koronar) arteriyalardagi qon oqimining buzilishi. Ko'pincha bunday buzilish arteriyalar aterosklerozining fonida yuzaga keladi va unda tomirlarning devorida aterosklerotik pilakchalar (blyashkalar) paydo bo'ladi. Ushbu pilakchalar toj arteriyalari bo'shlig'ini toraytiradi va tomir devorlarining shikastlanishiga hissa qo'shadi, bu esa tromb va arterial stenoz shakllanishi uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratadi.

Infarktning xavf omillari.

Ushbu o'tkir kasallikning rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradigan bir qator omillar mavjud:

1. Ateroskleroz. Yog' almashinuvining buzilishi natijasida qon tomir devorlarida aterosklerotik pilakchalarning paydo bo'lishi miokard infarktining rivojlanishida asosiy xavf omilidir.
2. Yosh. 45-50 yoshdan keyin kasallikni rivojlanish xavfi ortadi.
3. Jins. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollarda ushbu keskin vaziyat erkaklarnikiga qaraganda 1,5-2 marta ko'proq uchraydi, ayniqsa klimaks davrida ayollarda miokard infarkti rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi.
4. Arteriyal gipertoniya. Gipertoniya (yuqori qon bosimi) bilan og'rikan insonlarda yurak-qon tomir kasalligi rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi, chunki arterial bosim ortishi bilan miokardda kislorodga talab oshadi.
5. Avval boshdan kechirilgan miokard infarkti, hatto kichik ko'lamli bo'lsada.
6. Chekish. Ushbu zararli odat tanamizning ko'plab organlari va tizimlarining ishdan chiqishiga olib keladi. Surunkali nikotin bilan zaharlanish natijasida toj arteriyalar torayib ketadi, bu esa miokardda kislorod yetishmasligiga olib keladi. Va gap nafaqat faol chekish haqida, balki passiv chekish haqida ham bormoqda.
7. Semizlik va gipodinamiya. Yog' almashinuvi buzilganda aterosklerozning rivojlanishi tezlashadi, qandli diabet kasalligi xavfi ortadi. Jismoniy yetishmovchilik va kamharakatlik organizmdagi modda almashinuviga salbiy ta'sir qiladi, bu esa ortiqcha vaznning to'planishiga sabab bo'ladi.
8. Qandli diabet. Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda miokard infarkti rivojlanish xavfi yuqori, chunki qondagi yuqori qand miqdori tomir devorlari va gemoglobinga salbiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida uning transport (kislorodni tashish) qobiliyati yomonlashadi.

**Miokard infarkti belgilari va alomatlari:** Bu o'tkir holat o'ziga xos alomatlarga ega va ular odatda shunchalik yaqqol namoyon bo'ladiki, ular sezilmay qolishi mumkin emas. Shunga qaramay, ushbu kasallikning atipik shakllari ham mavjudligini esda tutish kerak.

Ko'pchilik hollarda bemorlar miokard infarktining odatda og'riqli shaklini rivojlantiradilar, buning natijasida shifokor kasallikni aniq tashxislash va darhol davolashni boshlash imkoniga ega.

Kasallikning asosiy belgisi bu kuchli og'riqdir. Miokard infarkti bilan kechadigan og'riq ko'krak orqasida joylashgan bo'lib, u yonish hissi va xanjar urilgandek tuyuladi, ba'zi bemorlar og'riq «yorib tashlagudek» bo'ladi deya ta'riflaydi. Og'riq chap qo'lga, pastki jag'ga, kuraklar orasiga tarqalishi mumkin. Ushbu holatning rivojlanishi har doim ham jismoniy zo'riqishdan keyin kelmaydi, ko'pincha og'riq sindromi dam olish vaqti yoki kechqurun yuz beradi. Og'riq alomatining tavsiflangan xususiyatlari stenokardiya xurujlarida bo'lganiga o'xshash bo'lsa-da, ularning bir-biridan ajratib turuvchi aniq farqlar bor.

Stenokardiya xurujidan farqli o'laroq, miokard infarkti tufayli paydo bo'lgan og'riq sindromi 30 daqiqadan ko'proq davom etadi va tinch holatga o'tish yoki

nitrogliserinni takroriy qabul qilish bilan to'xtamaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, og'riqli xuruj 15 daqiqadan ko'proq davom etsa, qabul qilingan chora-tadbirlar samarasiz bo'lsa, darhol shoshilinch tibbiyot jamoasi chaqirilishi kerak.

### **Miokard infarktining atipik shakllari.**

Atipik shaklda kechayotgan miokard infarkti tashxis qo'yish paytida shifokor uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

**Gastritik variant.** Kasallikning ushbu shaklida yuzaga kelgan og'riq sindromi gastirtning xuruji tufayli yuzaga kelgan og'riqqa o'xshaydi va epigastrik mintaqada joylashgan bo'ladi. Ko'rikda qorin old devorining mushaklari tarangligi kuzatilishi mumkin. Odatda, miokard infarktining bunday shakli diafragma yaqin bo'lgan pastki chap qorincha shikastlanishlarida kelib chiqadi.

**Astmatik variant.** Bronxial astmaning shiddatli xurujini eslatadi. Bemorda bo'g'ilish, ko'pikli balg'amli yo'tal (quruq bo'lishi ham mumkin) kuzatilishi va shu bilan birga odatda og'riq sindromi kuzatilmaslgi yo'q yoki zaif ifodalangan bo'lishi mumkin. Og'ir holatlarda o'pka shishishi rivojlanishi mumkin. Ko'rik o'tkazilganda yurak ritmining buzilishi, qon bosimi pastligi, o'pkada xirillash sezilishi mumkin. Ko'pincha, kasallikning astmatik shakli takroriy miokard infarktida, shuningdek, og'ir kardiosklerozning fonida sodir bo'ladi.

**Aritmik variant.** Miokard infarktining bu shakli turli xil aritmiya (ekstrasistoliya, miltillovchi aritmiya yoki paroksizmal taxikardia) yoki turli xil darajadagi atriyoventrikulyar blokada bilan namoyon bo'ladi. Yurak urishi ritmining buzilganligi sabab EKG tekshiruvda miokard infarkti aniqlanmasligi mumkin.

**Serebral variant.** Bosh miya tomirlarida qon aylanishi buzilishi bilan tavsiflanadi. Bemorlar bosh aylanishi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi va qayt qilish, oyoqlar holsizligidan shikoyat qilishi mumkin, hush chigal bo'lishi mumkin.

**Og'riqsiz variant** (xira shakli). Miokard infarktining bu shakli tashxislashdagi qiyinchiliklarga eng ko'p sababchi bo'ladi. Og'riq sindromi umuman kuzatilmaslgi mumkin, bemorlar ko'krak qafasidagi noma'lum bezovtalik va haddan tashqari terlashdan shikoyat qilishadi. Ko'pincha ushbu kasallik shakli qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda uchraydi va juda og'ir kechadi.

Ba'zan miokard infarkti klinik tasvirida turli kasalliklar alomatleri mavjud bo'ladi va bunday hollarda, afsuski, holat yakuni ko'proq salbiy bo'ladi.

### **Miokard infarktini davolash:**

Bemorda miokard infarkti shubha qilinishi mumkin, agarda:

- Ko'krak orqasida kuchli yonish hissi bilan kechadigan og'riq sezilsa, 5-10 daqiqadan ko'proq davom etadi;
- Og'riq vaqt o'tishi bilan, tinch holatga o'tgandan yoki nitroglitserin qabul qilgandan so'ng tinchimaydi;
- Og'riq kuchli holsizlik, ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i va bosh aylanishi bilan birga keladi.

Agar miokard infarktidan shubha qiladigan bo‘lsangiz, darhol tez yordamga qo‘ng‘iroq qiling va bemorga yordam berishni boshlang. Bemorga dastlabki yordam qancha barvaqt berilsa, yakun shuncha ijobiy bo‘ladi.

